

ZOMIN SIXATGOXI HUDUDINING KO‘KALAMZORLASHTIRISHNING
EKOLOGIK SAMARADORLIGI

Fayzullaev Manas Musurmonqul o‘g‘li

Guliston davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: fayzullayevmanas@gmail.com

Norboyeva Madina Hidoyat qizi

Guliston davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik kafedrasida 1-bosqich talabasi

E-mail: allanazarovasaodat48@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada Zomin sixatgoxi hududining ko‘kalamzorlashtirishning ekologik samaradorligiga oid materiallar keltirib o‘tilgan. Jizzax viloyati Zomin tumani hududida joylashgan Zomin sixatgoxi hududini ko‘kalamzorlashtirishda hududning tabiiy iqlim sharoitlariga e‘tibor qaratish, ekiladigan manzarali daraxtlar va butalar turlarini kengaytirish, o‘lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topishga doir ma‘lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Aholi yashash joylari, o‘lka, ko‘kalamzorlashtirish, sixatgox, Turkiston tog‘i, qo‘riqxonalar, archazor, gulzor, dengiz satxi, obodonlashtirish.

ECOLOGICAL EFFICIENCY OF GREENING THE ZOMIN HEALTHCARE AREA

Abstract: In this article, materials related to the ecological efficiency of greening of the territory of the Zomin health center are presented. In the greening of the Zomin sanatorium, located in the territory of the Zomin district of the Jizzakh region, the information on paying attention to the natural climatic conditions of the area, expanding the types of ornamental trees and shrubs to be planted, and finding varieties and forms that can adapt to the conditions of our country were analyzed.

Key words: Residential areas, land, landscaping, sanatorium, Turkestan mountain, nature reserve, arboretum, flower garden, sea level, beautification.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Aholi yashash joylari - shaharlar, ular ichidagi mavze va dahalar, mahallalar va qishloqlarni ko‘kalamzorlashtirishda hududning tabiiy iqlim sharoitlariga e‘tibor qaratish, ekiladigan manzarali daraxtlar va butalar turlarini kengaytirish, o‘lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish - bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va xukumat qarorlarida hamda “Harakatlar strategiyasi” da aholi yashash xududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 iyundagi PQ-3052-sonli “Sog‘liqni saqlash organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori [2] qabul qilingan bo‘lib, unda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish, sixatgox va sixatgoxlarni rekonstruksiya qilish va yangilarini barpo etish, ularni hududlarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish belgilab berilgan.

Shaharsozlikdagi katta tajriba shuni ko'rsatadiki, asosiy vazifalardan biri – tabiiy va sun'iy yaratilgan muhit o'rtasida ma'lum muvozanat va garmonik ravishda uyg'unlashuviga erishish, barcha ko'kalamzorlashtirish obyektlarining o'zaro bog'liqligi va bir yaxlit tizimga birlashtirilishi sanaladi. Yashil qurilish – uzoq vaqtni talab etadigan, yaratish texnologiyasi bo'yicha murakkab ijodiy jarayon bo'lib, bir qancha ishlab chiqarish masalalarini yechish va tadbiq etish bilan bog'liqdir.

Yashil qurilish amaliyoti: bog' va hiyobonlarni yaratish; u yoki bu aholi yashash joylarini obodonlashtirish; har xil tuproq-iqlim sharoitiga mos bo'lgan o'simliklarni tanlash; arxitektura-qurilish inshootlari, suv havzalari, yo'llar, maydonchalar, xaykallarga mos ravishda o'simliklarni joylashtirish va guruhlash; o'simliklarni ekib parvarish qilish ishlarini o'z ichiga oladi.

Ko'kalamzorlashtirish sohasi oldidagi vazifalarni yechishda, avvalo, o'simlik turlarini ko'paytirishda va ko'chatxonalarda yetishtiriladigan ko'chatlar sifatini yaxshilashda hozirda mavjud bo'lgan o'simliklarning boy fondidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Aholi yashash joylari – bu turli binolar, ko'p sonli muhandislik inshootlari, yo'llar, maydonlar, ochiq joylar, suv xavzalari va yashil ekinzorlarning murakkab kompleksidir. Shaharsozlik me'yorlariga ko'ra, aholi yashash joylari hududlarining 50% dan kam bo'lmagan qismi ko'kalamzorlashtirish obyektlariga ajratilishi kerak.

Sixatgoxlar hududini ko'kalamzorlashtirish joyning mikroiqlimini yaxshilash bilan birga bemorlarning tezroq sog'ayib ketishlariga xizmat qiladi. Daraxtzorlar barpo etishda har bir hudud sharoitiga mos daraxt turlarini tanlash, buning uchun esa mahalliy turlarning holatini o'rganish dolzarb masaladir.

Umumiy daraxt turlari orasidan ko'cha va magistrallarni, skver va bulvarlarni, park va bog'larni, sanoat hududlari, o'quv yurtlari, kasalxonalar, dam olish uylari va boshqalarni ko'kalamzorlashtirishda mos daraxt turlarining tarkibini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bunday keng tarmoqli rejalashtirish daraxt turlarini qo'llanish sohalariga taqsimlagan holda baholashni talab qiladi. Bunda avvalambor seleksion baholash, ya'ni mahalliy sharoitdagi daraxtlarning manzaraviyligi va tashqi muhitga (tuproq sharoitiga, sanoat va transport chiqindi gazlariga) chidamlilik darajasi bo'yicha taqsimlash birinchi o'rinda turadi.

Maqsad va vazifalar: Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Zomin sixatgoxi hududini ko'kalamzorlashtirish uchun ushbu sharoitga mos daraxt va butalarni tanlab olish va ularni ko'paytirishga tadbiq etish ishimizning maqsadi hisoblanadi. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Zomin sixatgoxi hududini ko'kalamzorlashtirish uchun ushbu sharoitga mos keladigan daraxt turlarini tahlil qilish va ko'paytirishga tadbiq etish;
- Zomin sixatgoxi hududini ko'kalamzorlashtirish uchun ushbu sharoitga mos keladigan butalarni tahlil qilish va ko'paytirishga tadbiq etish.

Natijalar va ularning muhokamasi. "Zomin sixatgoxi" tuman markazidan 50 km uzoqlikda, Jizzax viloyatidagi iqlimiy kurort, Turkiston tog' tizmasining shimoliy etaklarida dengiz satxidan 2000 m balandlikda qo'riqxona hududida archazorlar orasida joylashgan.

Shu tufayli havoda atmosfera bosimi nisbatan past, kislorod va quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurga boyligi aynan yuqori nafas yo'llari va asab tizimi kasalliklariga bog'liq

bo‘lgan bemorlar uchun juda foydali bo‘lganligi sababli yuqoridagi qayd qilingan bemorlarni davolashga moslashgan. **1-rasm**

“Zomin sixatgoxi” 7 qavatdan iborat bo‘lib : **0.1.2.3** qavatlar mamuriyat, qabulxona ,buxgalteriya, kadrlar bo‘limi, oshxona hamda davolash bo‘limlaridan iborat. **4.5.6.7** qavatlar esa yotoq uchun moslashtirilgan.



1-rasm. Zomin sixatgoxining umumiy ko‘rinishi.

Aholi yashash joylari mikroiklimini shakllanishiga daraxtlar katta ta’sir ko‘rsatadi. Yilning turli vaqtlaridagi havo harorati, atmosfera yog‘inlari miqdori, havo va tuproq namligi, quyosh turishi holatiga va quyosh radiyasiyasining jadalligi va davomiyligini belgilovchi bulutli kunlar shamol rejimi, atmosfera bosimi – bularning hammasi birgalikda mazkur joyning iqlimini ifodalaydi.

Quyosh radiyasiyasi miqdori yilning turli vaqtlarida o‘zgarib turuvchi kunning davomiyligi va quyoshning turishi holatiga ma’lum darajada bog‘liqdir. Yoz mavsumida mikroiklimning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Bu holat quyosh radiyasiyasining yuqori darajaga yetishi bilan bog‘liq. Ma’lumki, yozning jazirama kunlari soat 12⁰⁰ larda havo harorati +35 +40 °C darajaga yetganida tuproqning ochiq quruq yuzasidagi (qum, asfalt, beton), shuningdek, uylar tomlari va janub tomonida radiasion harorat +70 +80 °C darajaga yetishi mumkin.

Quyosh insolyasiyasi vaqtida isib ketgan bino va inshootlar quyosh botishidan keyin ham issiqlik tarqatishini davom ettiradi, natijada havo haroratining yuqoriligi nafas olishni qiyinlashtiradi. Daraxtlarning barglari o‘zga xos issiqlik xossalariga ega. Ular issiqlik nurlanishini ham, quyosh spektrini ham turli daraxtlarda turli darajada yutish, qaytarish va o‘tkazish xususiyatiga ega.

Yosh eman (dub) daraxtlaridan iborat o‘rmon 96,8% quyosh radiyasiyasini tutib qoladi, qarag‘ayzor 96%, archa, terak, emandan iborat aralash o‘rmon 97-98% quyosh radiyasiyasini tutib qoladi. Bunga daraxtlarning termokimyoviy vazifasi sababchidir.

Manzarali yaproq va nina bargli daraxtlar shamol tezligini pasaytiradi, havo tarkibini tozalovchi tabiiy bir “koridor” xam xisoblanadi. Bunda o‘simlik turlarini o‘sib rivojlanish shakliga, barglarning to‘zilishiga ham etibor qaratiladi.

Inson salomatligi uchun eng mo'tadil bo'lgan ob-havo muhiti harorat +20 +22 °C va havoning nisbiy namligi 40-60% bo'lgan holda, havo toza va azon bilan boyigan bo'lishidir.

Ma'lumki, daraxt va butalar havodagi karbonat angidridini o'zlashtiradi va havoni kislorod bilan boyitadi. 1 gektar yashil ekinzor maydoni bir soat mobaynida havodan 8 kg karbonat angidridni o'zlashtiradi. Huddi shu hajmdagi karbonat angidrid gazini 200 ta odam o'pkasi nafas olish jarayonida ajratib chiqaradi. Boshqacha aytganda, 1 ta inson nafas olishi uchun zarur bo'lgan mo'tadil havo tarkibini 50 m² maydondagi yashil ekinzorlar ta'minlab beradi.

O'zbekistonning ko'pchilik tumanlarida yil bo'yi katta kuchga ega shamollar tez-tez bo'lib turadi. Ular osmonga juda ko'p miqdorda chang, qum zarrachalarini ko'tarib, ularni katta masofalarga tarqatadi. Changning bir qismi ko'cha hovlilar, xonadon ichiga kirib, ifloslantirib aholi punktlarida o'tirib qoladi.

Ko'kalamzorlar ular orqali o'tayotgan shamol oqimi tezligini uch marta kamaytiradi. 50 m kenglikdagi ko'kalamzorning shamol tezligini pasaytirishga ta'siri shamol kelayotgan tomondan ham, unga qarshi tomondan ham katta masofada seziladi. Bu shamol faoliyati kuchli tumanlarda muhim ahamiyatga egadir.

To'liq ko'kalamzorlashtirish natijasida havo changdan deyarli batamom tozalanadi. Bunda o'simliklardan ajralib chiqadigan fitonsidlar havodagi zararli mikroblarni 40-50% ga kamaytiradi. Hatto, qish oylarida daraxtlarning barglari bo'lmasa ham, ularning changdan himoyalashdagi ahamiyati katta.

Havoning tozaligini ta'minlash uchun boshqa qo'shimcha tadbirlar – sanoat korxonalarini chiqindilarining tarqalishini oldini olish chora tadbirlari bilan birga ko'chalarni obodonlashtirish ham muhimdir.

Muxandislik va ekologik-biologik jihatdan to'g'ri loyihalash orqali yashil ekinzorlar ishining sanitarlik vazifasi samaradorligi ta'minlanadi. Yashil sanitar ekinzorlarni barpo etishda shamol yo'nalishi, atmosferaga tarqaladigan chiqitlarning turi, balandligi va tarkibi, kimyoviy va fizik xossalari inobatga olinishi lozim.

Havoning yuqori ionlashuvi odamda, o'rmonlarda, daraxt shox-shabballari ostida, bog' va hiyobonlarda kuzatiladi. Ayniqsa, ionlar soni (1 sm³ havoda 1283 ta engil ionlar) aralash daraxtzorlarda va qayrog'och-bargli daraxtzorlarda (1 sm³ havoda 1166 ta engil ionlar) borligi aniqlangan.

Atmosfera havosining ionlar bilan to'yinganligi nafaqat daraxtlarning dendrologik tarkibiga, balki ekinzorlar yoshiga ham bog'liqdir. Yosh ekinzorlarda yengil ionlar soni, yoshi kattalariga nisbatan ko'proq bo'ladi. Havo ionlashuvi darajasida daraxtlar va gulli o'simliklardan ajratib chiqadigan saqichsimon va xushbo'y moddalarga ham bog'liq.

Gulzorlardagi havoning ionlashuv darajasi ninabargli ekinzorlardagiga nisbatan 66% ga yuqori bo'ladi. Havoning ionlashishiga oq akasiya, oddip qarag'ay, qrim qarag'ay, oq qayin, sibir tilog'ochi, oddiy siren, Amerika zarangi, biota, g'arb tuyasi, eman, mayda bargli jo'ka; gulli o'simliklardan geran, oleandrlar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Manfiy (-) ionlar soni havo harorati, tuproq harorati, yorug'likdan bevosita bog'liqlikda bo'lib, havoning nisbiy namlik darajasi va shamol kuchiga bilvosita bog'liqdir. Shamol tezligining pasayishi o'rmon ekinzorlarida ionlashgan havoning ushlanib qolishiga sabab bo'ladi.

Shovqinga qarshi kurashishda vertikal birlashgan daraxtlar qatorlari samarali bo'lib, ular himoyalalanayotgan obyektiga nisbatan to'g'ri joylashishi lozim. Yaproq bargli daraxt turlari

25% shovqinni yutadi va 75% shovqinni qaytaradi.. Shovqinni pasaytiruvchi zonaning kengligi 5 m dan kam bo'lmisligi lozim. Tovush energiyasini kattaligi bo'yicha turlicha guruhlardan iborat o'simliklar yaxshiroq yutadi.

Xulosa. Zomin tumani sharoitida kuchli sovuq va kuchli issiq xarorat har 10 yilda kuzatilishi mumkin. Eng yuqori xarorat iyul oyiga to'g'ri kelib, +44 °C ni tashkil etadi. Eng past xarorat esa dekabr oyiga to'g'ri kelib –21 °C ni tashkil etadi. Bu iqlim sharoiti ko'pchilik daraxtlar uchun xavfli emas.

Ushbu sharoitda o'stirilayotgan mahalliy daraxt turlaridan sharq chinori, qayin, virgin archasi, qrim qarag'ayi, biota va manzarali butalar yaxshi o'sib rivojlanmoqda. Sharq chinoridan tashqari boshqa daraxtlarni sixatgoxlarni ko'kalamzorlashtirish ishlarida ko'proq qo'llasa bo'ladi. Chunki sharq chinori yil davomida bargi va shoxlarini to'kib, ko'chaning tozaligini buzib turadi va bemorlar uchun allergiya holatini yuzaga keltiradi.

Sixatgoxning old qismidagi yo'l bo'ylariga daraxtlarni ikki qator qilib shaxmat usulida joylashtirish ko'proq zichlikni ta'minlaydi va chiqindi gazlar miqdorini 35% gacha, changni 1% gacha kamaytiradi. Daraxtlar uch qator qilib joylashtirilganda chang miqdori 50% gacha pasayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/4785256>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil, 28 yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 iyundagi PQ-3052-sonli "Sog'liqni saqlash organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
4. Bogovaya I.O., Fursova L.M. Landshaftnoe iskusstvo. – M.: Agropromizdat, 1988. 102-str.
5. Bo'riev X.Ch., Jononbekova A.T., Abdurahmonov A.. Gulchilik. - T.: Mehnat, 1999. 190-bet.
6. Bilov V.N., Zaysev G.N. Lyalina A.S. Sad neprerivnogo sveteniya. – Moskva: «Nauka», 1975.
7. Dosaxmetov A.O. Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish. Ma'ruzalar matni. - Toshkent, 2001.